



UDK:94(575.1)

Mahmud HAMRAYEV,
Sharq univerisiteti o'qituvchisi
E-mail:mahmudhamrayev18111991@gmail.com

O'zRFA Tarix instituti professori, t.f.d Q.Rajabov taqrizi asosida

AMIR SAID OLIMXONNING MILLATLAR LIGASIGA QILGAN MUROJAATNOMASI HAMDA "BUXORO XALQINING HASRATI TARIXI" XOTIRALARI TO'G'RSIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoroning so'nggi amiri Amir Said Olimxonning Millatlar Ligasiga qilgan murojati va o'zi tomonidan yozilgan Buxoro xalqining hasrati tarixi asari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Amir Said Olimxon, Millatlar ligasi, Omonullaxon, Buxoro xalqining hasrati tarixi, Hoji Yusufbek Muqimboy o'g'li, "Tayms" gazetasi, Xurrambek, "Manchester-Gardian" gazetasi.

ON THE APPEAL OF AMIR SAID OLIMKHAN TO THE LEAGUE OF NATIONS AND THE MEMOIRS "THE HISTORY OF THE SORROW OF THE BUKHARA PEOPLE"

Annotation

This article discusses the appeal of the last emir of Bukhara, Amir Said Olimkhan, to the League of Nations and the work "History of the Sorrow of the People of Bukhara" written by him.

Key words: Amir Said Olimkhan, League of Nations, Amonullahkhan, History of the Sorrow of the Bukhara People, Haji Yusufbek Mukimboy o'g'lu, The Times newspaper, Khurrambek, Manchester Guardian newspaper.

ОБ ОБРАЩЕНИИ АМИРА САИДА ОЛИМХАНА В ЛИГУ НАЦИЙ И МЕМУАРАХ "ИСТОРИЯ СКОРБИ БУХАРСКОГО НАРОДА"

Аннотация

В данной статье рассматривается обращение последнего эмира Бухары Амира Саида Олимхана в Лигу Наций и написанное им произведение "История скорби бухарского народа".

Ключевые слова: Амир Саид Олимхан, Лига Наций, Амонуллахан, История скорби бухарского народа, Хаджи Юсуфбек Мукимбой о'г'лу, газета "Таймс", Хуррамбек, газета "Манчестер Гардиан".

Amir Said Olimxon Sharqiy Buxorodan Afg'onistonga muhojirlikka jo'nab ketishga majbur bo'lgach, u Angliya va ba'zi Yevropa davlatlariga murojaat qilishga qaror qildi. 1923-yil iyunda "Tinchlikni suyganlarga va adolatni hurmat qilganlarga" sarlavhali bir memorandum bitib, uni Jeneva (Shvetsariya)da qarorgohi joylashgan Millatlar Ligasiga va bir qator davlat boshliqlariga yubordi. Bu memorandum "Tayms" gazetasida "O'rta Osiyoda bolsheviklar siyosati" nomi bilan bosilib chiqdi. Ahad Andijonning yozishicha, afsuski, amirning bu murojaatiga e'tibor berilmadi, dunyodagi hech bir davlatdan javob kelmadi[1].

Amir Said Olimxon Kobulda o'zining "Buxoro xalqining hasrati tarixi" nomli esdaliklarini kitob holiga keltirdi. Bu memuar asar hamda Millatlar Ligasiga yozgan bayonoti uning ishonchli vakili general Hoji Yusufbek Muqimboy o'g'li tomonidan 1927-yil sentabrda Jenevadagi tashkilotga yetkazildi. Said Olimxon tomonidan tayyorlangan bu hujjat jahon xalqlarini hayratga soldi. Fransiya, Germaniya, Italiya, Angliya, Eron va boshqa davlatlarda bu hujjatlar qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi.

Bu haqda general Hoji Yusufbek Muqimboy o'g'li quyidagilarni xotirlaydi: "so'zni tugatishdan oldin shularni aytishni lozim ko'ramanki, oliy hazrat Buxoro amirining Jenevada bo'lgan shikoyatidan so'ng uning nomini hurmat-ehtirom va samimiyat bilan esladilar. Fransiya, Italiya, Germaniya, Angliya va Eron vakillari bu favqulodda kishiga nisbatan hurmat-ehtiromda bo'ldilar. Bu safarim natijalarini Amir oliy hazratlari huzuriga kelib izhor qildim. Oliy hazrat Amir, o'z navbatida Millatlar Ittifoqi hay'atida inson qadri va huquqining qadriga yetishidan ikkinchi marta meni Ovrupoga

ravona bo'lishga buyurdilar. U kishi ba'zi buyuk davlatlar boshliqlari nomiga men orqali maktub yo'lladilar. Shu bilan men o'z vazifamni meyoriga yetkazib bajarish baxtiga muyassar bo'ldim. Shunday qilib men olam musulmonlariga quyidagilarni ma'lum qilmoqchiman: ular baxti ketgan bu xalq va uning podshohining bu boradagi kechmishlaridan ogoh bo'lsalar. Bu esdaliklarni o'qigan o'quvchilardan yana shu narsalarni orzu etaman: shoyad ular bizning bu muqaddas burchimizni bajo keltirishimizga bizga ko'mak berishsa va Rusiya bolsheviklarining bizga nisbatan qilayotgan barcha tuhmat va bo'htonlarini haqiqatdan holi ekanligini bilib olishsa"[2].

Millatlar Ligasi tomonidan Amir Said Olimxonning murojaatiga tayinli bir javob qaytarilmadi. Bu haqida Amir Said Olimxon shunday deydi:

"Ey vatan, oxirgi nafasimgacha senga salom deymen. Garchi sen parcha-parcha bo'lding, lekin har bir parchang bir davlat-hokimiyatdir. Vatan ruhi menda doim tirikdir. Millatlar Ligasi bolsheviklarni jazolamadi. Bolsheviklar Buxoro ustidan o'z hokimiyatini o'rnatganda Millatlar Ligasi tomoshabin bo'lib turaverdi, Buxoroyi Sharifni sho'rolar nega parchalab tashladi, demadi. Buxoro seni parchalab tashlaganlarida boshqa musulmon davlatlari beparvo qarab turaverdilar va xalqingni badnom qilmoqchi bo'ldilar. Sening nomingni jahon tarixi sahifalaridan o'chirib tashlamoqchi, sharif nomingni jo'g'rofiya sahifalaridan olib tashlamoqchi bo'ldilar. Lekin bunga erisha olmadilar, chunki sening noming tarix sahifalariga mustahkam yozib qo'yilgan. Tarixdan ma'lumki, Buxoro xalqi sening nomingni abadiy saqlash uchun doim jon-dili bilan kurashib kelgan. Biror guruh sening xalqingni

fazilatlarini yo'qota olmaydi. Ey Buxoro, sening uchun tug'ildim, Sening uchun yashayman va sening yoding bilan jon beraman. Salom senga Buxoro"[3].

Amir Olimxonning fors tilida bitilgan xotiralari[4] dastlab Parijda 1929-yilda fransuz tilida chop etildi. O'zbekistonda esa ilk marta xotiralari "Buxoro xalqining hasrati tarixi"[2] nomi bilan o'zbek va rus tillarida 1991-yil Toshkentda nashr qilindi. Bu kitob 1992-yili Tojikistonda tojik tilida[5] nashrdan chiqdi.

U Kobulda muqim yashasa ham Buxoroda istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy jihatdan rahbarlik qilishda davom etdi, qo'rboshilar va ulamolarga turli maktublar va qimmatbaho sovg'alar jo'natib, ularni bolsheviklar va qizil armiyaga qarshi kurashga ilhomlantirgan. U kurash rahbarlari bilan doimiy ravishda aloqada bo'lishga harakat qildi. Buxorodagi har bir vaziyatdan xabardor bo'lish maqsadida haftada 1–2 marta elchilar orqali maktublar almashinuvi bo'lib turgan. Amir Olimxonning maktublarini qo'rboshilarga yetkazish juda mas'uliyatli vazifa bo'lgan. Chunki, birinchi navbatda, Sovet hokimiyati sobiq amirga o'zining asosiy dushmani sifatida qaragan va bu holat ham unga ma'lum edi. Shuning uchun ham muhojirlikda turib yashash murakkabligini va har bir qadamni o'ylab bosish lozimligini bu davrda amir juda yaxshi anglab yetgan edi. Siyosiy vaziyatning qaltisligi xatoga yo'l qo'ymaslikni talab etar edi. Amir Olimxon holatdan kelib chiqib, qo'rboshilar orasiga yuboradigan har bir elchisini eng ishonchli va sodiq odamlardan tanlashga harakat qilgan. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarishi lozim bo'lgan kishilar oldindan tayyorlangan. YA'ni unga zarur bo'lgan barcha hujjatlar tayyorlab berilgan. Ularni sovet chegarasidan o'tishi uchun mavjud imkoniyatlar rejalashtirilgan va oldindan tuzilgan harakat kesimida yo'naltirilgan. Chunki Sovet davlati o'z chegaralarini qattiq qo'riqlashga harakat qilgan. 1924–1925-yillardagi manbalar shuni ko'rsatadiki, mazkur yillar davomida Amir Olimxonning maktublarini Afg'onistondan Sharqiy Buxoroga yuborishda uning Xonobodda yashab turgan tog'asi Saidbek va Akromxon To'ralar muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, vazifalarni amalga oshirishda Saidbekning xizmati ko'proq. U maktublarni olib borishi kerak bo'lgan elchi sifatidagi odamlarni o'zi tanlab olgan, ularni kerakli anjomlar bilan ta'minlagan hamda chegaradan o'tishiga yordamlashgan[6].

Olimxon qolgan butun umrini Kobulda o'tkazdi. U xorijda ham Buxoroni bolsheviklardan ozod qilish fikridan voz kechmadi. 1929-yil 4-iyunda "Manchester-Gardian" (Angliya) gazetasida Olimxonning "Bolsheviklarning O'rta Osiyoga kompaniyasi" nomli jahon xalqlariga murojaatnomasi e'lon qilindi. Bu murojaatnomada sovet Rossiyasini 1917–1922-yillarda Markaziy Osiyoda yuritgan mustamlakachilik siyosati, Buxoroning qizil armiya tomonidan bosib olinishi, amirlik xazinasining talon-toroj qilinishi va Moskvaga olib ketilishi, istiqlol janglari haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Sobiq hukmdorning yozishicha, Turkiston mintaqasida qizil armiyaga qarshi kurashayotgan mujohidlar soni bu paytda 60 000, qizil armiya jangchilarining soni esa 100 000 kishi (faqat Buxoroning o'zida 40 000 nafar qurolli qizil askar) bo'lgan[7].

Sharqiy Buxorodagi istiqlolchilar bu paytda qizil armiya qismlariga qarshi hayot-mamot janglarini avj oldirib yuborgan edilar. Afsuski, Amir Said Olimxon kindik qoni to'kilgan tuproq – Buxoroda qolib, o'z xalqining milliy istiqlol kurashiga bevosita rahbarlik qilish o'rniga, 1921-yil 4-mart kuni "Ko'lob viloyatining usti bilan Amudaryodan o'tadigan joydan" Afg'oniston davlatiga o'tib, poytaxt Kobulga – afg'on amiri Omonullaxon huzuriga keldi. Said Olimxon keyinchalik Kobulda yashab, Buxorodagi istiqlolchilik harakatiga yo'l-yo'riq ko'rsatib turdi. Said Olimxon, xususan, Buxorodagi mashhur qo'rboshilar Ibrohimbek va Mulla Abdulqahhor, keyinchalik Anvar Posho va Salim Posho kabi harbiy

lashkarboshilarga doimiy ravishda o'z ehtiromini izhor qilib turgan. Said Olimxon buxorolik muhojirlarning Afg'onistondagi rahbari ham edi. U qolgan butun umrini o'sha yerda o'tkazdi[8].

Arxivda saqlanib qolgan 1924–1925-yillardagi tarixiy ma'lumotlarda keltirilishicha, bu vaqtda amirning maxsus vakili (elchisi) sifatida quyidagi 20 nafar kishi Buxoroga kelgan: Xon Ali To'qsabo, Mulla Niyoz, Navro'zqul Bek, Mulla Nazarjon, Muhammad Qosimbiy, Subhonqulbek (halok bo'lgan), Said Fathullaxon, Pahlavon Xo'ja Sudur, Sulaymon Xo'ja Sudur, Rahmatulla Hoji O'roq, Jahongirbekbiy, Fayzi Xo'ja, Ne'matulla To'qsabo, Mirza Sa'mi Eshikog'asi, Jondor To'qsabo, Solih Pahlavon, Ziyo Pahlavon, Asadullabiy, Hoji Rajab To'ra va boshqalar[6].

Ma'lumki, Surxon vohasi qo'rboshilarining yetakchisi Xurrambek 1924–1925-yillarda Ibrohimbekka bo'ysunmay, o'z holicha faoliyat ko'rsatadi. Olimxon tomonidan Ibrohimbekka yuborilgan maktubda, bu maktub sovet harbiylari qo'lga tushib qolgan edi, shunday ma'lumot keltiriladi: "Xurrambek Sizning yoningizga kelmay, sizga bo'ysunishdan bo'yin tovlaganligidan bu yer (Kobul)da On Hazratlari nihoyatda g'azabda. Xurrambekka Sizning yoningizga borishi va ixtiyoringizga o'tishi borasida nihoyatda maxfiy buyruq jo'natildi. U On Hazratlarining ko'rsatmasini bajaradimi yoki yo'qmi bu haqda marhamat qilib Kobulga xabar yuboring..."[9].

Xurrambek amirning maxfiy buyrug'ini olgandan so'ng vaziyatni batafsil xabardor etish maqsadida o'z vakilini Kobulga jo'natadi. Ular Amir Olimxonning qabulida bo'lib, Xurrambek uchun tegishli ko'rsatmalarni olgach, 1925-yil 18-aprelda Kobuldan orqaga qaytishadi. Xullas, amir vositachiligida Ibrohimbek bilan Xurrambek o'rtasidagi kelishmovchilikka barham beriladi[6].

Amir Olimxon qo'rboshilarni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlagan va ularni jangovarlik ruhini ko'tarish uchun ma'lum amal va mansablarga ham tayinlab turgan. Shu o'rinda uning Ibrohimbekka 1925-yil aprelda yo'llagan quyidagi xati o'rindir: "Marhamat qilib, mening chin yurakdan salomim va istaklarimni barcha harbiy boshliqlarga, g'ozilarga, lashkarlarga, o'zingizning askarboshilaringiz va yuzboshilaringizga, barcha jasur askarlar va oddiy yigitlarga yetkazishingizni buyuraman. Shu bilan birga, yana bir bora yovga qarshi jangda matonat ko'rsatganlarni va ularni hukmdor ko'rsatmasi bilan taqdirlashimiz haqida ma'lumot berib turishingizni buyuraman. Biz o'zimizning barcha sodiq xizmatchilarimizni bilishimiz hamda bunday kishilarni toj-u taxt va Vatan oldidagi barcha xizmatlari, albatta, taqdirlanishi kerak"[9].

Shu maqsadda Amir Said Olimxon 1925-yilning aprelida Ibrohimbek qo'l ostidagi qo'rboshisi Mulla Abdul Aziz Eshikog'aboshini yanada shijoat va matonat bilan xizmat qilishini inobatga olib, uning amalini ko'taradi. 1925-yil 7-mayda Ibrohimbek qo'rboshining o'zi ham amir tomonidan qimmatbaho bezaklar bilan bezatilgan qalpoq, chiroyli ingliz egari, ot uchun yopinchiq va yuqori sifatli durbin bilan taqdirlandi. 1925–1924-yillardagi maktublardan ma'lum bo'lishicha, amir tomonidan Ibrohimbekning guruhida qizil qo'shinga qarshi jang olib borayotgan 70 nafar kishiga maxsus buyruq bilan turli lavozim va unvonlar taqdim etiladi.

Amir Said Olimxonning xotiralari dastlab Parijda 1929-yili fransuz, so'ngra G'arbda fors tilida bosilgan. Bu xotiralarning ruscha tarjimasini Ibrohimbek qo'rboshi va safdoshlarining chekistlar tomonidan to'qilgan "jinoiy ishi"ga 1931–1932-yillarda kiritilgan[10]. Bu xotiralar uning o'z yurtida faqat mustaqillikka erishish arafasida – 1991-yilning boshlarida dastlab "Fan va turmush"[11] jurnalida, keyinchalik "Buxoro xalqining hasrati tarixi"[2] nomi bilan o'zbek tilida "Fan" nashriyotida alohida kitob shaklida, o'sha yili Toshkentda "Zvezda Vostoka"[12] jurnalida rus tilida,

1992-yili esa Dushanbeda tojik tilida[5] kitob holida chop qilingan.

Amir Said Olimxonning “Buxoro xalqining hasrati tarixi” nomli xotiralari uch fasldan iborat bo'lgan. Memuarining birinchi fasli “Rahmdil va mehribon Alloh ismi bilan” nomli muqaddima bilan boshlanib, so'ngira “Bolsheviklar bilan bo'lgan muhoraba hikoyasi”, “Mulla Abdulqahhorning Buxoro atrofida to'rt yil davomida urushi” bo'limlari keladi. Kitobning ikkinchi fasli “Buxoroning tabiiy jo'g'rofiyasi”, “Buxoroning siyosiy va idoriy tashkilotlari”, “Buxoroning tabiiy boyliklari”, “Bolsheviklarning Buxoroga hamlasi” nomli bo'limlardan iborat. Asarning so'nggi uchinchi fasli “Buxoro amirlarining tirikchilik tarixi”, “General Hoji Yusufbek Muqimboy esdaliklari”dan iborat. Olimxon kitobining 1991-yildagi o'zbekcha nashriga tarjimon Abdusodiq Irslov tomonidan kichik so'zboshi yozilgan. Kitob oxirida “Tarjimondan” deb Amir Said Olimxonning Kobuldagi qabri tepasiga yozilgan so'zlarning o'zbekcha matni keltiriladi, hukmdor Olimxonning hayoti va faoliyati yillari icham tarzda beriladi. Amir xotiralari 1991-yili “Fan” nashriyotida 100 000 nusxada chop etilgan hamda kitob O'zbekistonda odamlar o'rtasida qo'lma-qo'l bo'lib ketgan edi. Eng qizig'i, sovet davlatining so'nggi oylarida chop etilgan kitob titulgiga “V.I. Lenin nomidagi O'zbekiston bolalar jamg'armasi” hamda “Ijodkor” xo'jalik hisobidagi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi grifi qo'yilgan edi[2].

Olimxonning 1932-yil Kobulda tug'ilgan o'g'li Said Mansurxon keyinchalik umrining oxirigacha Turkiyada yashaydi. Uning fors tilida yozilgan “Buxoro – Turkiston beshigi”[3] (1996) asarida mang'itlar sulolasi hukmdorlari, xususan, otasi Amir Sayyid Olimxon xususida nodir ma'lumotlar mavjud. Ushbu asar buxorolik manbashunos va tarixchi olim Halim To'rayev tomonidan fors tilidan o'zbekchaga tarjima qilinib, 2004-yili “Buxoro” nashriyotida chop qilindi.

Buxorolik jurnalist va adib Nusratulla Naimov Amir Sayyid Olimxon va farzandlari hamda amir xazinasi taqdiri to'g'risida 2008-yili “So'nggi hukmdor” tarixiy qissasini, 1995-yili “Amirning zurriyoti” va 2005-yili “Amirning xazinasi” kitoblarini chop ettirgan[13]. Samarqandlik yozuvchi Artur Samari bu haqda “Amirning oltini”[14] nomli ruscha romanini ham yozgan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda Amir Sayyid Olimxon shaxsiyatiga nisbatan haqqoniy va xolis munosabat qiyinchilik

bilan bo'lsa-da shakllanmoqda. Tarixchilar Turkiston tarixida o'tgan so'nggi hukmdor hayoti va faoliyatini to'g'ri yoritishga harakat qilishmoqda. Shu bilan birgalikda, bir guruh yozuvchi va havaskor qalamkashlar, shov-shuvga o'ch jurnalistlar[15] Olimxon faoliyatini ideallashtirib, uni ko'klarga ko'tarish bilan shug'ullanishsa, ayrim jurnalist va adiblar[16] xuddi Sovet davrida bo'lgani kabi sobiq hukmdorga turli tuhmat va malomat toshlarini otmoqda. Ular orasida ayrim taniqli adiblarning ham borligi achinarli holatdir[7].

Shunday qilib, Amir Sayyid Olimxonning Buxoroda o'n yillik hukmronlik davri murakkab siyosiy va harbiy mojarolar paytiga to'g'ri keldi. Bir tomondan bolsheviklar harbiy tajovuzi va ularning ommaviy hujumi, ikkinchi tomondan, ichki muxolifat hisoblangan Yosh buxorolik jadidlar harakati natijasida amirlik tuzumi ag'darib tashlandi. 1756–1920-yillarda hukm surgan mang'itlar sulolasi tarix sahnasidan tushirildi.

Amir Sayyid Olimxon nomi nafaqat mang'itlar sulolasining, balki Turkistonning so'nggi hukmdori sifatida ham tarix sahifalaridan joy oldi.

Amir Olimxonning muhojirlikdagi hayoti qiyinchiliklar bilan kechdi. Albatta bu mushkulotlarga qaysidir ma'noda amirning o'zi ham aybdor edi. Amir Olimxon xalqaro vaziyatni to'g'ri tahlil qilib, Yosh buxoroliklar bilan kelishuvga erishganda edi, balki vaziyat boshqacharoq bo'lardi. Ammo tarixning muhim burilish pallasida Amir Said Olimxonda siyosiy iroda yetishmadi. Amir Said Olimxon Afg'onistonda muhojirlikda yashasa ham Buxoroni ruslardan ozod qilishga harakat qildi. Qo'rboshilar bilan doimiy aloqada bo'lib, ularni ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatladi. Biroq doimgiday Buxoro harbiy kuchlarida birlikning yo'qligi, hatto qo'rboshilarning bir-birini qo'llab-quvvatlamasligi, harbiy tayyorgarlikning sustligi Buxoroni ruslardan qaytarib olishga imkon bermadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida tarixiy shaxslar to'g'risida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ammo hozirgacha Amir Said Olimxon faoliyati tadqiqotlarda yetarlicha yoritilmagan. Tarixiy shaxslar silsilasida o'ziga xos ziddiyatli shaxs sifatida gavdalanuvchi Amir Said Olimxonning siyosiy faoliyati, muhojirlikdagi hayoti va bu murakkab shaxsning fojiali taqdiri hamda avlodlari hayoti chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan mavzu hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. – Тошкент: Тафаккур, 2017. – Б. 155.
2. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Форс тилидан А.Ирисов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 29-30.
3. Саййид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2004. – Б. 125-126.
4. Nurettin Hatinoglu. Türkistanda son türk devleti Buhara emirliği ve Alim Han. – Istanbul: Ötüken, 2016. – S. 229.
5. Хотираҳои Амир Олимхон. – Душанбе: Адиб, 1992. – С. 48.
6. Бобоев Ф. Амир Олимхоннинг совет ҳокимиятига қарши кураши// “Sohibqiron yulduzi” (Қарши), 2020. – №1. – Б. 61-62.
7. Ражабов Қ. Бухоро манғит амирлари. – Тошкент: Фан, 2025. – Б. 232-234.
8. Қ. Ражабов. Қизил қўшинга қарши Бухоро. Тўлдирилган ва қайта ишланган 2-нашри. – Тошкент: Фан, 2025. – Б. 140-145.
9. Пограничные войска СССР. 1918 – 1928. Сборник документов и материалов. – Москва: Наука, 1973. – С. 576-580
10. Его высочество Эмир Бухарский Саид Алим Хан. Голос угнетенной Бухары (История бедствий испытанных народам Бухары)// Ражабов Қ. Иброҳимбек қўрбоши ва сафдошлари жасорати. – Тошкент: Фан, 2022. – Б. 150-181.
11. Амир Саид Олимхон. Бухоро халқи чеккан кулфатлар тарихи. Нашрга тайёрловчи: Саид Мурод// “Фан ва турмуш”. 1991. – № 3. – Б. 18-21; – № 4. – Б. 26-31.
12. Саид Алимхан. История бедствий испытанных Бухарским народам. Подготовка к изданию: М.Хасанов, В.Германов, К.Шадиёв// “Звезда Востока” (Ташкент), 1991. – № 7. – С. 44-62.
13. Нусратилло Наимов. Амирнинг хазинаси. – Бухоро, 1995. – Б. 47; Qayta nashri. Тошкент: Фан, 2005. – Б. 76. O'sha muallif. Амирнинг zurriёти (тарихий кисса). – Бухоро, 1995. – Б. 40; O'sha muallif. Сўнгги хукмдор (тарихий кисса). – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2008. – Б. 172.
14. Артур Самари. Золото Эмира (роман). – Ташкент: Узбекистан, 2018. – Б. 480.
15. Ҳасан Азиз. Моҳигул. Бухоронинг сўнгги маликаси киссаси. – Тошкент: “Наманган” нашриёти, 2017. 1-китоб. – Б. 132; 2-китоб. – 240 бет; Дилфуза Остонаева. Аждодлар руҳи (кисса). – Тошкент: Лессон пресс, 2020. – Б. 272.
16. Нурали Қобул. Супержосуслар салтанати ёҳуд Ататуркдан Амир Олимхону Бериядан Брежневгача (Роман-памфлет). VII. – Тошкент: Маърифат битиклари, 2023. – Б. 454; O'sha muallif. Оч ва тўқ сиқонлар салтанати ёҳуд оғзидан отилгану оғзидан осилган одамлар (Роман-памфлет). VIII. – Тошкент: Маърифат битиклари, 2023. – Б. 448; Набижон Бокий. Мадфун Туркистон. – Тошкент: Труст анд Суппорт, 2023. – Б. 528.